



ILMIY AXBOROTNOMA

№ 2, 2025

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК * SCIENTIFIC BULLETIN


BUXORO PSIXOLOGIYA VA
XORIJIY TILLAR INSTITUTI



ILMIY AXBOROTNOMASI

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

№ 2, 2025



<http://buxpxti.uz>



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSION KURULTAYI
AXBOROT VA OMMABOY KAMMUNIKATSIONLAR AGENTLIGI

ГУВОХНОМА

№ 064916

"BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAM'IYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат бўйичадан ўтказилганлиги тўғрисидаги
гувоҳнома

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSION KURULTAYI
C-5461143

СММ (СОЛМАҚ) ТЎЛОВЧИЛАТ АЎДИТИОКАЦИОН РАЎНАҚ
30303030

АММЛАҚАТМЫ МУДДАТ
02.02.2025 йил

ЖОЙЛАШТИРИЛГАНЛИК (ПОЧТА МАНОБАТ)
Бухоро вилояти, қишлоқ тумани, "Б. НАЗИМОВ" МТЎНУС

БАЎЛАТТИРИШ
Ўзбекистон Республикаси Президентининг Администрацияси қўрақдаги Ахборот ва оммавий
коммуникациялар агентлиги

22.02.2023 12:54
Тўғридан Тўғридан СММ



Гувоҳнома

№ 064916

Документ турини

Оммавий ахборот воситаси соҳасида фаолият юритиш ҳақида

Қўшимча маълумотлар

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI

Оммавий ахборот воситасининг асоси	Оммавий ахборот воситасининг тили	Оммавий ахборот воситасининг тури
BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMY AXBOROTNOMASI	O'ZBEK/RUS/INGLIZ	Jurnal

ТАҚДИМЛАШ ҚУЎРАҚ МАЎЛОҚ

Тақдирининг қўрақ ва шакли	Қўрақ	Тақдирининг сани
Республика мақомада	Ахборот	Ахборот



BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMY AXBOROTNOMASI

ilmiy-amaliy jurnal
2-son
Buxoro - 2025. - 368 b.

Научный вестник
Бухарского
института
психологии и
иностранных
языков
научно-практический
журнал
Выпуск 2.
Бухара - 2025. - 368 с.

Jurnal Buxoro psixologiya
va xorijiy tillar instituti
muassisligidagi nashr
hisoblanadi.

**Jurnalning nashr sifati
uchun bosmaxona
javobgar.**

OBUNA INDEKSI 3062

Jurnal tahririyat kompyuterida
sahifalandi.
Bosishga ruxsat etildi 19.03.2025
Qog'oz bichimi 60x84, 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabog'i 23
Buyurtma № 41. Adadi - 60
Bahosi kelishilgan narxda.
«Sharq-Buxoro» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
Buxoro shahar O'zbekiston
Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy.
Tel: 0(365) 222-46-46



ISSN 3030-3710 (P)

ISSN 3030-3095 (E)

**BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY
AXBOROTNOMASI
ilmiy-amaliy jurnal**

**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA INSTITUTE OF PSYCHOLOGY
AND FOREIGN LANGUAGES
scientific and practical journal**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ИНСТИТУТА ПСИХОЛОГИИ
И ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ
научно-практический журнал**

№ 2, 2025

Muassis: Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
<http://buxpxti.uz/>, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
<https://t.me/OstanovSH>

Ramazonova O'g'iloy Xolmurodovna

Buxoro davlat universiteti

Musiqqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası katta o'qituvchisi

AN'ANAVIY XONANDALIK TA'LIMI JARAYONIDA MAQOM ASARI IJROSIGA PSIXOLOGIK YONDASHUV

Annotatsiya. Maqolada an'anaviy xonandalik ta'limi jarayonida maqom asari ijrosiga psixologik yondashuv, xonandalik ta'limi jarayonida maqom asari ustida ishlash uslublari, xonandaning ijro mahoratini tashkil etuvchi texnik ijro, ibora, artikulyatsiya ustida ishlash, bastakorning uslubi va davrini o'rganish kabi ko'plab omillardan iborat murakkab jarayonlarga psixologik yondashish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Maqom, kuy, qo'shiq, ashula, xonanda, musiqiy-badiiy ifoda, dinamika, artikulyatsiya, ovoz diapazoni, psixologik yondashuv.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ИСПОЛНЕНИЮ ПРОИЗВЕДЕНИЯ МАКАМА В ПРОЦЕССЕ ТРАДИЦИОННОГО ПЕВЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье освещены психологический подход к исполнению макамного произведения в процессе традиционного певческого образования, методы работы над макамным произведением в процессе певческого образования, техническое исполнение, составляющее исполнительское мастерство певца, работа над фразировкой, артикуляцией, изучение стиля и периода работы.

Ключевые слова: Макам, мелодия, песня, певец, музыкально-художественное выражение, динамика, артикуляция, голосовой диапазон, психологический подход.

PSYCHOLOGICAL APPROACH TO THE PERFORMANCE OF A MAQAM PIECE IN THE PROCESS OF TRADITIONAL SINGING EDUCATION

Annotation. The article highlights the psychological approach to performing a maqam piece in the process of traditional singing education, methods of working on a maqam piece in the process of singing education, technical performance that constitutes the singer's performing skills, work on phrasing, articulation, studying the style and period of work.

Key words: Makam, melody, song, singer, musical and artistic expression, dynamics, articulation, vocal range, psychological approach.

Kirish. Maqom asari ustida ishlash xonandaning barcha faoliyatining asosi hisoblanadi. Lekin maqom asari ijrosini muvofaqiyatli o'zlashtirish va asarlarni o'rganishdagi ijodiy faoliyat bevosita xonandaning kasbiy faoliyatiga emas, balki xonanda shaxsini maqsadli rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, asar ijrosi bo'yicha musiqiy, badiiy-estetik tajriba orttirishga ham bog'liqdir.

Maqom asari ustida ishlashda ijobiy natijalarga erishish uchun asar ijrochi bo'yicha asosiy maqsad – uning mazmunidagi musiqiy-badiiy obrazni ochishni tushunish kerak. Maqom asarini o'rganishning barcha bosqichlari xonandani ushbu maqsadga erishishi uchun ijro san'ati bilan bevosita bog'liq bo'lgan vositalar bilan ta'minlashga qaratilgan. Asar ijrosini sahnada chiqib namoyish etish ham asardagi musiqiy-badiiy obrazni ochib berishni maqsad qiladi. Asar ijrosi bilan aloqador bo'lgan barcha bosqichlarda, jumladan, asar ustida malakali ishlarni amalga oshirilganligi ommaviy chiqish paytida musiqiy-badiiy tasvirni muvaffaqiyatli ochib berishning zarur shartidir.

Maqom asarlari ustida ishlash xonandaning ijro mahoratini tashkil etuvchi texnik ijro, ibora, artikulyatsiya ustida ishlash, asarning ijro uslubi va davrini o'rganish, yetuk xonandalar faoliyatini o'rganish kabi ko'plab omillardan iborat murakkab jarayondir. Demak, har bir maqom asari ijrosini to'g'ri ta'minlab borish jarayonida xonandaning ijrochilik mahorati, texnikasi, professional saviyasi oshib borishi kerak.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maqom asalarini ijro etishni o'rganishga oid musiqiy psixologiya muammolari qadimgi davrlardan boshlab maqom ijro san'ati rivojlanishining barcha bosqichlarida ko'rib chiqilgan.

Maqom asarlari ijrosi bo'yicha bevosita aloqador bo'lgan musiqiy-psixologik omillardagi ilk izlanishlarni antik davr faylasuflari, o'rta asrlarda ijod etgan sharqning buyuk mutaffakkirlar asarlarida ko'rishimiz mumkin. Masalan: eramizdan avvalgi VI asrda yashab o'tgan Pifagor evritmiya ta'limotida musiqa psixologiyasi haqida fikr yuritgan. U Evritmiya deganda insonning hayotiy voqeyliklardan o'ziga xos ritm, usul topa olish qobiliyatini tushungan.

Pifagorning musiqa haqidagi qarashlaridan yana biri shundan iborat bo'lganki, u kuy va ritm inson qalbiga ta'sir ko'rsatishini ham aniqlagan. Zamonlar osha musiqa san'ati rivojlanib borgan va shu bilan birga musiqa va inson psixologiyasi bir biriga chambachas bog'liqlikda ekanligi taraqqiy eta boshlagan. Yunon faylasufi Platon (er.avv.V asr) ham musiqaning o'ziga xos xususiyatlari, inson bilan hamnafasligi haqida fikr yuritgan, uning ilmiy qarashlarida kishi e'tiborini tortadigan turli-tuman tushunchalarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, uning qayd etishicha davlatning kuch va qudrati unda qanday musiqa, qaysi ohang va ritmda yangrayotganligiga bog'liq ekan.

Eramizdan avval IV asrda yashab o'tgan Aristotel ta'limotida ham musiqaning bir qator xususiyatlarini ifoda etilganligini ko'rish mumkin. Jumladan, u o'zining ilmiy qarashlarida musiqani inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishini qayd etgan. Aristotel insonning ichki olami, his-tuyg'usi, tasavvuriga musiqaning ta'sir o'tkaza oladigan usullarini ochib berishga molik mimesis ta'limotini ishlab chiqdi. Aristotel qarashlarining e'tiborli tomonlaridan yana biri shundaki, u inson psixologiyasini o'zgartiradigan, yangi tasavvurlarni shakllantiradigan musiqiy ladlar xususiyatlarini batafsil tasvirlab bergan.

Musiqa san'atiga oid manbalarni tahliliy natijalari shundan dalolat beradiki, Qadimgi Xitoyda musiqa tartib va sivilizasiya ramzi hisoblangan. Musiqa, jumladan, ashulalar insonni estetik tarbiyalashning eng muhim vositasi hisoblangan. Shunga binoan musiqa san'atidan xabardor bo'lishi, kuy va qo'shiqlarni o'rganilishi shart bo'lgan fanlar qatoriga kiritilgan. Hindistonda ham musiqa san'ati muhim ahamiyat kasb etgan. Bu mamlakatda qadim davrlarda kishilarni musiqadan foydalanib davolash ishlari amalga oshirilgan..

O'rta asrlarda Sharqning buyuk mutaffakkirlari, Forobiy, Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy musiqaning insonga ijobiy ta'sir etish xususiyatlarini o'rgangan va bu borada ilmiy asoslangan manbalarni yozib qoldirgan. Ular tomonidan yaratilgan kitoblarda musiqaning inson qalbi, kayfiyati, organizmiga ta'siri ko'rsatishi mumkin bo'lgan materiallar mavjud. Bu materiallarni o'rganish shundan dalolat beradiki, Sharq olimlari bevosita musiqa psixologiyasini tadqiq etishgan.

Yevroda tarkib topgan Barokko davrida ham musiqiy psixologik qarashlar shakllanganligini ko'ramiz. Jumladan, bu davda paydo bo'lgan ta'sirlar nazariyasi musiqa psixologiyasining rivojlaniishi nuqtai nazaridan katta qiziqish uyg'otadi. Ammo Barokko davrida musiqa psixologiyasi mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanmagan. Bu jarayon 19-asrning o'rtalaridan boshlab shakllana boshlagan.

20-asrga kelib esa musiqa psixologiyasi sohasida bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Rus olimlari Teplov B.M.[], Nazaykinskiy Ye. V.[], Gotsdiner A.L.[], Sagarelli Yu.A.[], Smirnov A.A., Petrushin A.A., o'zbek olimlari Davletshin M.G[], G'oziyev E.G'., Barotov Sh.R., Karimova V.M., To'ychiyeva S.M., Baxriyev A.R., Qodirov R.G'. va boshqalar umumiy psixologiya, musiqa psixologiyasi bo'yicha ilmiy ishlarni amalga oshirgan. Jumladan, professor R.G'. Qodirov [] "Musiqa psixologiyasi" sohasida shug'ullanib bir qator ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanma yaratgan, Baxriyev A.R. esa ilmiy-tadqiqot izlanishini bajargan,

Natija va muhokama. Xonandalar xalq qo'shiqlari, maqom asarlarining musiqiy va badiiy matni ustida ishlash uchun (avjni belgilash, ritmik, temp, ijroning dinamik tomonlari) ularda asarning badiiy mazmunini ifodali, tushunarli, mazmunli tarzda aks ettirish talablari qo'yiladi. Xalq qo'shiqlari, maqom asarlarining musiqiy-badiiy tuzilmalari asosida o'ziga xos musiqiy-badiiy obraz yaratish

jarayonida "tasavvur qilish" muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq qo'shiqlari hamda maqom asarlari uch shakldagi ifodalanishi bilan insonga ijobiy ta'sir ko'rsata olinadi. Ya'ni xalq yoki bastakorlar tomonidan adabiy matnga mos shakllantirilgan ohanglar shaklida, ushbu ohang asosida xonanda tomonidan jonli ijro etish shaklida, musiqiy-badiiy obrazlarning tinglovchining hayotiy tajribasi bilan o'zaro ta'siri mavjud. Ushbu faoliyatlarning barchasida – kuy, qo'shiq, ashula yaratish, uni ijro etish va idrok etish, tasavvur qilish, albatta, mavjud bo'lib, ularsiz to'liq musiqiy-badiiy faoliyatni amalga oshirish mumkin emas. Qo'shiq yoki ashulaning adabiy mazmuniga mos tushuvchi kuyni bastalash jarayonida bastalovchi shaxs tovushlar, ohangrabolik xayoli bilan ishlaydi, ularni badiiy so'zga mos joylashtirish mantig'ini o'ylaydi, musiqiy-badiiy obrazni yaratish paytida his tuyg'ular va fikrlarni yetkazadigan intonatsiyalarni tanlaydi. Xonanda esa asar matni ustida ishlashni boshlaganda, musiqiy-badiiy obrazni shakllantirishda asosiy vosita uning ifodali kuylash mahorati bo'lib, uning yordamida kerakli temp, ritm, dinamika, agogika, tembr va boshqalarni topadi. Asarni ijroviy muvaffaqiyati xonandaning ashula(qoshiq)ning yaxlit tuzilmasi, musiqiy-badiiy obrazni shakllantirishi, kuylashdagi har bir elementni his qilishi va yaxshi tushunishi bilan bog'liq.

Agar tinglovchining o'zi qo'shiq yoki ashuladagi musiqiy tovushlar, so'zlarni, shuningdek, asar ruhiga mos keladigan hayotiy vaziyatlarni, musiqiy-badiiy obrazlar va uyushmalarni tasavvurida uyg'otishi mumkin bo'lsa, bastakor va xonanda nimani ifoda etmoqchi ekanligini tushunishi mumkin.

Musiqqa asari ijrosi vositasida rivojlangan musiqiy tasavvurning o'ziga xos xususiyati uning g'ayrioddiy o'zgaruvchanligidir. An'anaviy xonandalik ta'limi asosini tashkil etuvchi maqom ashulalarini kuylashdagi variantlarning ko'pligi xonanda ijrosining ifodali vositalari: ohangrabolik, dinamik rang-baranglik, agogika(asar ijrosida badiiy niyatni ko'zlagan holda asar sur'atini bir oz o'zgartirish, tezlatish yoki sekinlatish), artikulyatsiya(asarni so'zda yoki ovoz bilan ijro etish) va boshqalarni o'zgaruvchan holda ishlatish orqali amalga oshiriladi. Kuylashdagi variantlar sonini har qanday musiqiy ifoda vositasini navbatma-navbat o'zgartirib borish orqali ko'paytirish mumkin. Xonanda maqom asarni pp dan ff gacha bo'lgan dinamikalar graduslarida, metrometrik aniqlikda va rubato(*ritmik erkin ijro usuli*) texnikasi bilan, kuychan, ohangrabolik va boshqa artikulyatsiya texnikalarida bajarishi mumkin. Maqom asarlarida faqat bitta musiqiy ifoda vositasining o'zgarishi asarning ajralmas qiyofasida ma'lum o'zgarishlarga olib keladi.

Xonandalarda maqom asarini kuylashga oid musiqiy tasavvurni rivojlantirish uchun ijroviy xususiyatlarga o'xshash yondashuvni musiqiy-badiiy ifodalashning umumiy vositalariga o'tkazish kerak. Asarni o'zgartirilgan variantlar uyg'unligida, yoqimli ohangda, qochirimlar bilan va ularsiz ijro etilishi mumkin. Maqom asarlari ijroviy xususiyati, ifodaviy vositalariga ko'ra bir-biriga yaqin yoki uzoqroq ma'noda bo'lishi mumkin. Ammo, ular haqiqiy tovush, badiiy so'z tuzulmasida cheksiz, turli xil ijro etuvchi talqinlarda bo'ladi. Ustozning asar ijrosi bo'yicha xonanda bajarilayotgan ishlariga o'zgaruvchan yondashuvni rag'batlantirishi, bitta asar ijrosining bir nechta usulda bajarish rejasini tuzishi xonandada boy ijodiy tasavvurning shakllanishiga olib keladi, ijroning badiiy ifodaliligini oshiradi.

Har qanday maqom asarini musiqiy-badiiy nuqtai nazardan to'g'ri va mazmunli ifodalashning barcha vositalarini o'zlashtirish asosida uning badiiy qiyofasini yaratish kerak. Musiqiy-badiiy ifoda vositalari kuyning musiqiy matnini bastalagan bastakor va xonandaning ijro etuvchi vositalarga bo'linadi. Kuyni bastalagan bastakorning ifoda vositalariga asarning musiqiy matnida aniq belgilab qo'yilgan barcha elementlari, ya'ni uslub va tonallik, shakllar (uni qismlarga bo'lish), ohang va uning tuzilishi, uyg'unligi, ritmi va metro-ritmi, temp, agogika, artikulyatsiya, qisman asarning o'ziga xos ijro uslubi va xarakteri (fazirovkasi) kiradi. Xonandaning vositalariga esa tembr, temp, dinamika, artikulyatsiya, so'z birikmasi, ijro uslubi va badiiy obrazlarni shakllantirish kiradi.

Asarlardagi musiqiy ifoda vositalari o'zaro bog'liq va bir-biriga aloqadorlikda bo'ladi. Shunga ko'ra maqom asarlarining ijro uslubi va artikulyatsiyaning musiqiy ibora qurilishining tuzilishi bilan bog'liqligini musiqiy va badiiy tahlil qilish orqali bilib olishimiz mumkin. Maqom asarlarida eng muhim ifoda vositasi – bu, asarning musiqiy yoqimlilik, ohangdorligi, ohangni rivojlantirish mantig'i (har bir intonatsiya yoki motivning to'liqligi va ularni iboralar, jumlar, davrlar)ni tushunishdir.

An'anaviy xonandalik san'atiga qo'yiladigan bir qator talablar mavjud. Ularga misol, xonandaning ovoz imkoniyatlarini to'g'ri boshqarish va undan samarali foydalanish, talaffuzni to'g'ri

qo'yish, ovoz chiqarish jarayoni va ijro uslubini to'g'ri bajarish, ovozinig bezalishi va kuchayishini ta'minlash, tabiiy ovozdan uzoqlashmaslik. Shuningdek, ijroda ayrim jummalarni aniq, bo'rttirib beruvchi vositalar: dinamika, artikulyatsiya, "Binnigi" (dimog, "Guligi" (tomoq), "Ishkami" (qorin) ijro usullaridan to'g'ri foydalanish.

O'zbek mumtoz xonandalik san'atida Binnigi" (dimog, "Guligi" (tomoq), "Ishkami" (qorin) ijro usullaridan tashqari, "falset" deb nomlanuvchi sun'iy ovoz chiqarish texnikasi ham keng qo'llanilishi bois ulardan o'z o'rnida foydalanish kerak. Chunki falset xonandaning tabiiy ovozidan farqli ravishda bosh miya orqali nazorat qilinadigan, nozik va sun'iy ovozdur. Falset ashulalarning avj qismida ishlatiladi va ijroning ifodaviyligini oshirishga xizmat qiladi. Falset usuli O'zbekistonning turli hududlarida, ayniqsa, Xorazm, Farg'ona-Toshkent ijro maktablariga mansub xonandalar orasida keng tarqalgan.

G'arb musiqasida falset maxsus vokal uslubi sifatida qat'iy tartibda qo'llanilsa, o'zbek mumtoz xonandaligida u ancha erkin talqin qilinadi. Ayrim hollarda falset tabiiy ovoz bilan uyg'unlashib ketib, ijrodagi muvozanatni oshiradi. Shu sababli, o'zbek xonandalik san'atida falset nafaqat yordamchi vosita, balki ijroning asosiy usullaridan biri sifatida ham xizmat qiladi.

Xonandalarning ovoz diapazoni uch asosiy registr: past, o'rta va yuqori registrarga bo'linadi. Ko'plab mumtoz xonandalar bir nechta ovoz registrlarini uyg'unlashtirib, ijroni yanada ta'sirchan qilishga intilishgan. Chunki, bu ijro usuli xonandaning ovoz imkoniyatlarini kengaytirib, ijroni yanada jozibador qiladi.

Mumtoz musiqa an'alarida xonandaning ijrochilik uslubi ma'lum bir makon, davr va ijodiy sharoit bilan bog'liq holda shakllanadi. Shu sababli, o'zbek xonandalik san'atini faqat bitta uslub doirasida tasavvur qilish noto'g'ri bo'ladi. Ko'plab xonandalar o'z faoliyatlarida bir necha janrlarni uyg'unlashtirgan holda turli ashulachilik uslublaridan foydalanadilar. Bu ijroning dinamikasini oshirishga, tinglovchilar qalbiga chuqurroq ta'sir qilishga imkon beradi. Shu bois, ustozona musiqa an'alarini o'zlashtirishni istagan xonanda ikki yoki uchta ashulachilik uslubini mukammal bilishi va ulardan ijro jarayonida mos ravishda foydalanishi lozim.

Xonanda maqom asarlari ustida ishlashi jarayonida o'zbek an'anaviy xonandalik san'ati amaliyotida qo'llaniladigan ovoz turlari talablarini his etishi, ijroning har bir bosqichida to'g'ri yondashishni unutmashligi kerak. Masalan, "Tik ovoz", "Dovudiy ovoz", "Kuchli ovoz", "Xasta ovoz", "Dardli ovoz", "Manqa ovoz", "G'alati ovoz", "Baqiroq ovoz", "Mungli ovoz", "Qo'ng'iroq ovoz", "Yoqimli ovoz" va boshqalar shular jumlasidandir.

Tabiiyki, maqom asari ijrosi davomida ayrim jummalarni aniq, badiiy bo'rttirib berish jarayonida uztoz doimiy ravishda uchta asosiy masalani: musiqiy material jumllarini mazmunan munosobatda bo'lishi, birlashishi va artikulyatsiyasiga ko'ra ularning birikmalarga ajratishni hal qiladi. Xonanda har qanday vaziyatdan unumli foydalanib, asar matnida aks ettirilgan har bir musiqiy iboraning his qilishni, asar ohangdor, yoqimli, ta'sirchan chizig'ining rivojlanishini ko'rish va eshitishni o'rganishi kerak. Zero, maqom asari ijro uslubining o'ziga xos muhim jihati shundaki, asardagi ohangdor chiziqni turli xil kuylash uslubida sezilmaydigan tarzda o'tkazish va shu orqali tovushlar tizimini yaratishdir.

Zamonaviy musiqiy psixologiyada maqom asarining badiiy qiyofasiga uchta tamoyil - moddiy, ma'naviy va mantiqiy birlik sifatida qaraladi. Asarning moddiy asoslari ohangdorlik, metro ritm, dinamika, tembr, registr, uslub kabi parametrlar bilan tahlil qilinadigan kuylashning akustik xususiyatlari ko'rinishida paydo bo'ladi. Faqat tasavvur va iroda bog'langandagina badiiy obraz paydo bo'lishi mumkin.

Xulosa. Maqom asari ustida ishlashda muvaffaqiyatga erishish uchun uning badiiy obrazini ochishga yo'naltirilgan barcha vositalardan o'rinni foydalanish kerak. Xonandaning muvaffaqiyati maqom asarining yaxlit qiyofasini his qilishi va yaxshi tushunishi bilan bog'liq. Xonandaning ijro mahoratini tashkil etuvchi texnik ijro, ibora, artikulyatsiya ustida ishlash, bastakorning uslubi va davrini o'rganish kabi ko'plab omillardan iborat murakkab jarayondir. Demak, maqom asarini o'rganish jarayonida xonandaning ijrochilik va umuman, professional saviyasi oshib borishi kerak.

267	Saidova Ozoda Tohirovna Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik imidjni shakllantirishning metodik asoslari
270	Sulaymonova Saodat Usubxonovna Animatsiya orqali ekologik ta'limni kuchaytirishda sun'iy intellekt, to'ldirilgan reallik va boshqa ilg'or texnologiyalarning o'rni
274	Temirov Tolib Tuxtayevich San'atshunoslik va madaniyatshunoslikda o'zbek maqomlarining ilmiy nazariy muammolari
277	Usmonova Dilafruz Umirzokovna Innovatsiyalar va an'analar integratsiyasi asosida talabalarni ma'naviy ruhda tarbiyalashni takomillashtirish
282	Zakirova Nargiza Ravshanovna Valiologiyaning tibbiyotda pedagogik integratsion texnologiyalarning qo'llash
286	Zokirova Fazila Boltayevna Qo'l oyog'i jarohatida psixologik qo'llab-quvvatlashning badiiy gimnastika orqali amalga oshirilishi
290	Мухамадиева Роза Уразовна Педагогические принципы вокально-хоровой деятельности в контексте профессиональной подготовки учителей музыки
294	Нурматова Фируза Муминовна Современные теоретические и практические методы совершенствования педагогического потенциала в истории исполнения макома
298	Палванова Умида Бахрамовна, Тургунов Собитхон Ташпулатович, Рузметов Бахтиёр Повышение готовности студентов немедицинских вузов к оказанию первой помощи в чрезвычайных ситуациях: результаты педагогического эксперимента
	10.00.00 – FILOLOGIYA
302	Akramov Izzatulla Ikromovich Linguacultural aspects of english aphorisms
306	Artikov Azamatjon Xolmurodovich Linguistic economy in morphology
310	Axmedova Muyassar Xadimatovna O'zbek tili jargonida inson so'zi ifodasini psixolingvistik tavsifi
316	Djumaeva Nozima Djuraboevna Pragmatic features of the verb in artistic discourse
321	Eshbekov To'lqin Usmon o'g'li "Boburiynoma" ma'rifiy romanining psixologik aspektlari
325	Radjabov Ruslan Rajabmurodovich, Jumaboyeva Marjona Farhod qizi Fransuz tilida zamonlar moslashuvi
329	Saidova Mukhayyo Umedilloevna Different approaches in investigating cohesion and coherence
336	Saidov Khayrulla Shavkatovich Speech compression in media discourse: a multifaceted analysis